

ABDULLA QAHHORNING HAYOT YO‘LI VA IJODI

Farxodov Zafar Qaxramon o‘gli*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti**Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi 2-kurs talabasi**e-mail: fazliddinzafar59@gmail.com*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdulla Qahhorning hayoti, ijodiy shakllanish jarayoni va adabiy merosi tahlil qilinadi. Adibning realizm an‘analari asosida yaratilgan asarlarida jamiyat hayotining tanqidiy, ijtimoiy va ma‘naviy muammolari badiiy umumshtirilgani ilmiy yondashuv asosida ko‘rsatib beriladi. Maqolada Qahhor asarlarining mavzu doirasi, obrazlar tizimi, badiiy uslub, kulgi va satira vositalarining qo‘llanilishi hamda ularning o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga ta‘siri tahlil qilinadi. Shuningdek, adibning asarlari misolida yozuvchining ijodiy tamoyillari va milliy adabiyotdagi o‘rni tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar. *Abdulla Qahhor, o‘zbek adabiyoti, realizm, badiiy mahorat, satira, ijtimoiy muammolar, obrazlar tizimi, adabiy meros.*

Annotation. *This article analyzes the life, creative formation, and literary heritage of Abdulla Qahhor, one of the prominent representatives of Uzbek literature. It examines how the writer, adhering to the traditions of realism, artistically generalizes social, moral, and critical issues of society in his works. The article explores the thematic range, system of characters, artistic style, and the use of humor and satire in Qahhor’s writings, as well as their influence on the development of Uzbek literature. Moreover, the study evaluates the writer’s creative principles and his role in national literature through the analysis of his major works.*

Keywords: *Abdulla Qahhor, Uzbek literature, realism, artistic mastery, satire, social issues, character system, literary heritage.*

Аннотация. *В данной статье анализируются жизнь, творческое становление и литературное наследие Абдуллы Каххара одного из крупнейших представителей узбекской литературы. Показано, как писатель, опираясь на традиции реализма, художественно обобщает социальные, нравственные и критические проблемы общества в своих произведениях. В статье рассматриваются тематический круг произведений Каххара, система образов, художественный стиль, использование юмора и сатиры, а также их влияние на развитие узбекской литературы. Кроме того, на основе анализа его произведений изучаются творческие принципы писателя и его роль в национальной литературе.*

Ключевые слова: *Абдулла Қаҳҳар, узбекская литература, реализм, художественное мастерство, сатира, социальные проблемы, система образов, литературное наследие.*

Kirish. O‘zbek adabiyotining taraqqiyotida Abdulla Qahhorning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Uning hayot yo‘li, ijodiy shakllanish bosqichlari va badiiy tafakkurining rivojlanishiga nafaqat o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, balki shaxsiy kechinmalari, oilaviy muhiti hamda hayotiy tajribalari ham kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. XX asrning eng nufuzli adiblaridan biri sanalgan Qahhor o‘z asarlarida real hayotni, inson ruhiyatini, jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarni teran anglab, ularni badiiy ifodaning puxta shakllari orqali yoritdi. Uning hayot yo‘lini o‘rganish adib ijodining tub mohiyatini anglash, asarlaridagi badiiy-estetik qarashlar shakllanishining manbalarini aniqlash hamda o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida tutgan o‘rnini ilmiy jihatdan baholashga imkon beradi. Shu bois A.Qahhor biografyasi va uning ijodiy merosini tahlil qilish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan Abdulla Qahhor o‘zining butun ijodiy faoliyati davomida turmushning pastu balandini, oqu-qorasini aks ettiradigan asarlar yaratdi. Iste‘dodli adib eng oddiy, biz o‘zimiz duch keladigan, eshitib yurgan, jo‘ngina voqealar asosida xalq maqollari, iboralaridan ustalik bilan foydalangan holda shunday asarlar yaratdiki, uni o‘qib larzaga tushmay qolmaydi kishi. Abdulla Qahhorning turli janrlarda yaratgan asarlari o‘z davrida keng kitobxonlar tomonidan zo‘r ehtiros bilan kutib olingan va sevib o‘qilgan. Yozuvchi ijod maydoniga ilk qadam tashlashi bilanoq o‘zbek adabiyotining ma‘naviy sofliqi, chuqur g‘oyaviyligi, yuksak badiiyligi uchun xizmat qildi. Abdulla Qahhor nihoyatda hozirjavob yozuvchi edi. U hayotdagi yangilikni, yangi voqeani tez fahmlab olar va uni mahorat bilan xalqqa etkazib berardi. Yozuvchi qirq yil davomida adabiyot sohasida unumli ijod qildi. Bu vaqt ichida u yuzdan ortiq hikoya va feletonlar, bir qancha badiiy ocherk va tanqidiy maqolalar yaratib, o‘zbek adabiyotida yorqin iz qoldirdi. U xarakter yaratishda, portret chizishda, obrazni individuallashtirishda o‘zbek tili imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalandi.¹⁰ Abdulla Qahhor ijodi ko‘plab janrlarni qamrab oladi: hikoya, roman, dramaturgiya va esse. Har bir janrda u o‘ziga xos badiiy uslub, obrazlarni jonlantirishdagi mahorat va ijtimoiy masalalarni chuqur tahlil qilish qobiliyatini namoyon qilgan. Uning asarlarida insoniylik, vatanparvarlik, adolat va ma‘naviyat kabi qadriyatlar ustuvor mavqega ega bo‘lib, ular o‘quvchini o‘z hayotiy tajribasi va ma‘naviy qarashlari bilan yuzma-yuz qo‘yadi.

¹⁰ Abduraimova, A. O. (2023). *Abdulla Qahhor — so‘z ustasi*. In O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi Respublika 16-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari (Vol. 8, p. 246).

Metodlar va usullar. Ushbu tadqiqotda Abdulla Qahhor hayoti va ijodini o‘rganishda biografik tahlil, adabiy-komparativ usul, pragmatik yondashuv, hamda badiiy matnlar tahlili metodlaridan foydalanildi. Avvalo, adibning hayot yo‘lini o‘rganishda tarixiy-biografik yondashuv qo‘llanilib, turli davrlardagi manbalar, ilmiy maqolalar va adabiy tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, Qahhor asarlarida uchraydigan ijtimoiy, ma’naviy va badiiy unsurlarni aniqlash uchun matn lingvistikasi va badiiy uslubiyat tamoyillari asosida tahlil olib borildi.

Adabiyotlar sharhi. Abdulla Qahhor ijodini o‘rgangan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar qatorida Mohinabonu Narziyevaning (2025) “Abdulla Qahhor ijodi” nomli maqolasi alohida ahamiyatga ega. Muallif adibning ijodiy shakllanish bosqichlari, satira va realizm an’analari, hikoyalaridagi ijtimoiy mazmuni ilmiy asosda tahlil qiladi. Narziyeva Qahhor asarlaridagi badiiy mahorat, obraz yaratish tamoyillari va yozuvchining o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini chuqur yoritadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, adibning ijodida inson ruhiyatini ochish, hayotiy haqiqatni tasvirlash hamda kulgi orqali tanqid qilish yetakchi xususiyat sifatida ilgari suriladi.¹¹ Ziyodaxon Qodirovaning (2025) ilmiy maqolasi esa Abdulla Qahhor hikoyalarini jahon adabiyotidagi mashhur yozuvchi O. Genri asarlari bilan qiyoslab o‘rganadi. Tadqiqotning asosiy e‘tibori Qahhor hikoyalaridagi maqollar, frazeologizmlar va lingvopragmatik vositalarning funksiyasiga qaratilgan. Qodirova maqollarni ikki yozuvchi ijodida madaniy kod sifatida talqin qilib, ularning kommunikativ, estetik va kognitiv vazifalarini tahlil qiladi. Bu tadqiqot Qahhor asarlarining nafaqat milliy, balki xalqaro adabiy jarayonlar bilan uyg‘unligini ko‘rsatadi.¹² Ikkala manba ham Abdulla Qahhor ijodini turli aspektlarda ichki badiiy tahlil va madaniyatlararo komparativ o‘rganish orqali ilmiy asosda yoritgan bo‘lib, mazkur tadqiqotning metodologik poydevorini mustahkamlaydi. Ushbu adabiyotlar Qahhor ijodining badiiy-estetik qiymatini, g‘oyaviy mazmunini va uslubiy xususiyatlarini tizimli ravishda o‘rganish imkonini beradi.

Muhokama. Abdulla Qahhor 1907-yili 17-senabrda Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. Uning otasi Abduqahhor temirchi bo‘lgan. Lekin bu kasbdan oladigan daromad tirikchilik uchun kifoya qilmagani sababli u doim ish izlab qishloqqa qishloq ko‘chib yurardi. Shu tufayli Abdullaning bolaligi Yaypan, Nursuh, Kudash, Buvayda, Tolliq, Olqor, Yulg‘unzor, Oqqo‘rg‘on kabi Qo‘qon atrofidagi qishloqlarda kechadi. Kechqurunlari otasi Abdullaga suratli eski kitoblardan hikoyalar o‘qib bergan. Qiyinchiliklarga qaramay, otasi Abduqahhor Jalilov va onasi Rohat aya o‘g‘liga

¹¹ Mohinabonu, Narziyeva. "ABDULLA QAHHOR IJODI." YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI 3.3 (2025): 385-391.

¹² Qodirova, Ziyodaxon. "Pragmatic Functions of Proverbs in the Short Stories of Abdulla Qahhor and O. Henry: A Comparative Cross-Cultural Analysis." TLEP–International Journal of Multidiscipline 2.5 (2025): 18-25.

boshlang‘ich ta‘limni bera olishgan. U o‘n yoshga to‘lganda Buvaydadagi eski maktabga o‘qishga kiradi, biroq ko‘p o‘tmay oila Oqqo‘rg‘onga ko‘chadi. Oqqo‘rg‘on maktabida Abdulla qo‘qonli Muhammadjon qorining usuli savtiya maktabida tahsil ko‘rdi. Muhammadjon qori ilg‘or fikrli ma‘rifatparvar odam edi. U geografiya, matematika kabi ilmlarni ham o‘qitgan. Ayniqsa, shogirdlarida sharq adabiyotiga qiziqish uyg‘otishga uringan.¹³ Ehtimol shu bois bo‘lsa kerak, Abdulla Qahhor umrining ohirigacha Sa‘diy va Xayyom, Hofiz va Bedil, Lutfiy va Navoiy, Bobur va Nodira asarlarini qo‘ldan qo‘ymay mutolaa qilar, ularning ancha-munchasini yod bilar va o‘rni kelganda ulardan parchalar keltirib, fikrini dalillar edi. Shundan so‘ng Abdulla Qo‘qonda yangi ochilgan “Istiqbol” maktab internatida o‘qiy boshlaydi, bu internat Abdullaning zehni yanada o‘tkirlashtirdi. Dastlab Oqqo‘rg‘on qishlog‘idagi Mamajon qorining usuli savtiya maktabida tahsil ko‘rdi. Oilasi Qo‘qonga ko‘chib kelgach „Istiqlol“ nomli sho‘ro maktabiga o‘qishga kiradi, undan keyin internat, „Kommuna“, „Namuna“ maktablarida, so‘ng bilim yurtida tahsil ko‘radi. Bilim yurtining „Adib“ qo‘lyozma jurnalida dastlabki mashqlari bilan qatnashadi. Toshkentdagi „Qizil O‘zbekiston“ gazetasi tahririyatining „Ishchi-batrak maktublari“ varaqasiga muharrirlik qildi. U gazetada ishlash jarayonida O‘rta Osiyo davlat universitetining ishchilar fakultetini tamomlaydi. Abdulla Qahhor yana Qo‘qonga borib, dastlab o‘qituvchilarni qayta tayyorlash kursida muallimlik qiladi; ko‘p o‘tmay „Yangi Farg‘ona“ viloyat gazetasiga kotib va „Chig‘iriq“ hajviy bo‘limiga mudir etib tayinlanadi. Abdulla Qahhorning „Oy kuyganda“ ilk hajviy she‘ri „Mushtum“ jurnalida Norin shilpiq taxallusi ostida bosildi. So‘ng uning bir qancha hajviy she‘r va hikoyalari „Mushtum“, „Yangi yo‘l“ jurnallari va „Qizil O‘zbekiston“ gazetasida Mavlon kufur, Gulyor, Nish, Erkaboy, E-voy kabi taxalluslar ostida e‘lon qilindi. Abdulla Qahhor 30-yillarda yana Toshkentga qaytadi va O‘rta Osiyo davlat universitetining pedagogika fakultetiga o‘qishga kiradi, ayni paytda „Sovet adabiyoti“ jurnalida mas‘ul kotib vazifasini bajaradi. O‘z davnashrda muharrir va tarjimon (1935–1953). 1954–1956-yillarda O‘zbekiston yozuvchilari uyushmasi boshqaruvining raisi bo‘lgan.¹⁴

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari Abdulla Qahhor ijodining shakllanishida uning hayot yo‘li, davr ruhiyati va shaxsiy tajribalarining muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi. Avvalo, adibning yoshligi va o‘smirlik davrida guvoh bo‘lgan ijtimoiy tengsizlik, xalq turmushidagi og‘irliklar, ma‘naviy muhitning o‘ziga xos jihatlari uning realizmga moyilligini kuchaytirgan. Shu ma‘noda, Qahhor ijodida hayotiy haqiqat, ijtimoiy tanqid va inson ruhiyatini ochish kabi tamoyillar tabiiy ravishda shakllangani tadqiqot davomida isbotlandi. Shuningdek, tadqiqot davomida adibning ijodiy prinsiplari bilan uning hayoti o‘rtasida

¹³ <https://oz.sputniknews.uz/>

¹⁴ Abdulla Qahhor hayoti va biografiasini <https://uz.wikipedia.org/>

bevosita bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Qahhor ko‘rgan adolatsizliklar, xalqning qiyin hayoti, madaniy-ma‘naviy o‘zgarishlar uning asarlarida kuchli aks etadi. Bu esa adib shaxsiy tajribasining ijodga kuchli ta‘sir qilganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, adibning jamiyatdagi salbiy holatlarni tanqid qilishdan ortga chekinmagani, hayotiy materialni badiiy shaklga aylantirishdagi mahorati uning o‘z davr adabiyotida o‘zgacha o‘rin tutishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Abdulla Qahhor ijodida inson ruhiyati, jamiyat hayoti va milliy qadriyatlar chuqur aks etgan. Uning “Sinchalak” asarida bolalik davrining kechinmalari, insonning shaxsiy shakllanishi va tarbiyaviy tajribalari markaziy mavzu sifatida yoritiladi. Qahhor bu asarda shuni ko‘rsatadi-ki, inson o‘z qiyinchiliklarini yengib, ma‘naviy va axloqiy jihatdan yetilishga intilishi lozim. Shu bilan birga, “Og‘riq tishlar” asari ijtimoiy adolatsizlik, inson va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlarni badiiy tarzda ochib beradi. Qahhor jamiyatdagi kamsitish va sinflararo tafovutlarni tanqid qilib, inson ruhiyatidagi azob va ma‘naviy kurashlarni yoritadi. Shuningdek, “Bemor” asari insoniylik va shaxsiy mas‘uliyat mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda inson ruhiyati va ijtimoiy hayot o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib berilgan. Qahhor bu asar orqali rahm-shafqat va axloqiy mas‘uliyatning zarurligini yetkazadi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari Abdulla Qahhor ijodi bir necha asosiy yo‘nalishda mazmunan boy va badiiy jihatdan teran ekanini ko‘rsatdi. Avvalo, adib asarlarida realizmning yetakchi tamoyillari ustuvor bo‘lib, real hayot manzaralari, maishiy lavhalar, inson ruhiyati va ijtimoiy ziddiyatlar yuqori badiiy mahorat bilan tasvirlanganini aniqlashga imkon berdi. Matn tahlili jarayonida Qahhor satirasining ikki funksiyasi- kuldurish va tanqidiy fikr uyg‘otish birgalikda ishlashi qayd etildi. Bu uning satira orqali jamiyatdagi illatlarni tanqid qilishga intilganini ko‘rsatadi. Shuningdek, adib hayotidagi tarixiy voqealar, bolalikdagi og‘ir turmush, oilaviy sharoit va keyingi yillardagi jamiyatdagi o‘zgarishlar uning ijodiy shakllanishiga kuchli ta‘sir qilgani isbotlandi. Tarixiy-biografik tahlil uning shaxsiy kuzatishlari hikoyalaridan tortib nasriy asarlariga qadar chuqur singib ketganini ko‘rsatdi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Qahhor ijodining o‘zbek adabiyoti realizm maktabi rivojiga katta hissa qo‘shganini, uning badiiy merosi milliy adabiyotda alohida bosqich bo‘lib xizmat qilishini va xalqaro adabiy jarayonlar bilan uyg‘unlashuvchi o‘ziga xos jihatlar mavjudligini ko‘rsatdi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodiy merosi o‘zining badiiy teranligi, ijtimoiy mazmuni va xalqona ruhiy tasviri bilan ajralib turadi. Adibning hayoti va ijodi o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlik uning realizmga sodiqligini, hayotiy haqiqatni ochiq tasvirlashga

intilganini va satira orqali jamiyatdagi kamchiliklarni fosh etish istagini namoyon qiladi. Asarlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, Qahhor satira, kulgi, maqollar va badiiy uslub orqali jamiyatdagi adolatsizliklar, insoniy qiyinchiliklar va ma’naviy muammolarni samarali yoritgan. Shu bilan birga, uning hikoyalari xalq og‘zaki ijodining boy an‘analariga tayanib, milliy ruhni saqlagan holda zamonaviy o‘quvchiga ham yetib boradi. Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor ijodi nafaqat o‘z davri o‘zbek adabiyotida, balki zamonaviy adabiyotshunoslikda ham dolzarb mavzu bo‘lib qolmoqda. Uning asarlari milliy ma’naviyatni saqlash, insoniy qadriyatlarni yoritish va jamiyat tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraimova, A. O. (2023). *Abdulla Qahhor — so‘z ustasi*. In O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar mavzusidagi Respublika 16-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari (Vol. 8, p. 246).
2. Mohinabonu, Narziyeva. "ABDULLA QAHHOR IJODI." YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI 3.3 (2025): 385-391.
3. Qodirova, Ziyodaxon. "Pragmatic Functions of Proverbs in the Short Stories of Abdulla Qahhor and O. Henry: A Comparative Cross-Cultural Analysis." TLEP–International Journal of Multidiscipline 2.5 (2025): 18-25.
4. <https://oz.sputniknews.uz/>
5. Abdulla Qahhor hayoti va biografiyasi <https://uz.wikipedia.org/>